

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH
ISHLARI.**

Nasiba Toshboyeva Abdug'afurovna

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani 85-mumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Anotatsiya: *Ta'lim muassasalaridagi 7-11-sinf o'quvchilarida kasb tanlashda uchraydigan asosiy muammolar, ularning yechimlari, o'quvchi yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga ko'maklashish.*

Kalit so'zlar: *Kasb-hunar, o'smir, o'spirin, motivatsiya, kasb tanlash, vatanparvarlik, ekskursiya.*

Kasb — kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. shuningdek kasb, odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Kasb inson uchun zarur bo'lgan, bo'sh vaqtida shug'ullanadigan, Vatani uchun xizmat qiladigan ishdir. Kasblarni hamma ham egallay olmaydi. Kasb o'rganish uchun eng avvalo o'qish va bilim olish zarurdir. Kasbiy bilim olish igna bilan quduq qazishdek gap. Agar insonda kasbiy ko'nikma va bilim bo'lmasa u o'zi istagan biror bir kasbni egallay olmaydi. Hayotda kasblar shunchalik ko'pki, ular orasidan bittasini tanlash shunchalik qiyin. Kasb qanchalik muvaffaqiyatlari tanlansa, inson o'zini shunchalik baxtli his qiladi. Ammo har qanday muttaxassislikni egallash uchun yaxshi maktab davridanoq yaxshi o'qish va tanlagan kasbga oid bilimlar, ko'proq qiziqish, layoqad hamda amaliy faoliyat kerak. Shu qatorda aytish joizki ta'lim muassasalarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari izchillikda tashkil qilinishi kerak. Har bir inson tanlagan kasbi uning kelajagi hisoblanadi. Har doim ham o'quvchilar kelajakdagi kasbini aniq tanlay olmaydi. Buning asosiy sababi o'spirinlarda barcha kasblar to'g'risida aniq ma'lumotning yetarli emasligi, kasbga doir amaliy bilimlarning kamligi hisoblanadi. Ba'zi o'spirinlar kasblari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar, rejalarini oldindan tuzadilar. Ba'zilari esa kasblarni ota-onada yoki boshqa kattalarning ta'risida tanlaydilar. Ba'zi o'spirinlar esa bo'lajak kasblarini tasodifiy sabablarga ko'ra tanlaydilar. Bu esa keyinchalik tanlagan kasbidan ko'ngli sovishi, o'z kasbidan norozi bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim muassasalarida 7-sinfdan boshlanadi. Agar inson o'z qiziqishlari va layoqatidan kelib chiqib, o'zi uchun eng ma'qul kasbni tanlasa, u inson har kuni o'z ishidan zavqlanadi va pozitiv ruhda yuradi. O'z ishidan hayoti uchun energiya va shijoat oladi, hayotini mazmunli o'tkazadi. Ta'lim muassasalarida 7-11-sinf o'quvchilari qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini aniqlovchi platforma yaratilgan. Kasbim – kelajagim deb nomlangan bu platforma o'quvchilarni qaysi sohaga qiziqishini aniqlagach, shu sohaga qaysi kasblar kirishi va buning uchun

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

zarur qobiliyat hamda o'zlashtirishi kerak bo'lgan fanlar haqida ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan. Bu o'quvchilarga qiziqqan sohasini aniqlab kasb-tanlashga motivatsiya beradi.

Turli kasbiy yo'nalishlar, istiqbolli soha va mutaxassisliklar to'g'risida bilimlarni mustahkamlash kerak. Maktab o'quvchilariga tanish bo'lмаган kasblar bilan ham tanishtirib borish, hozirda talab yuqori kasblarni bilish, bundan o'n yil keyin talab yuqori bo'lishi mumkun bo'lgan kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plab, kasblar bilan yaxshiroq tanishish lozim.

Maktabni bitirish arafasida o'spirin ko'pincha kasblar haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladi. Ular tanlagan kasblarining faqat ijobiy yoki aksincha salbiy jihatlarini ko'rishadi. Bunda ota-onalar farzandlariga ko'p narsalarni aniqlashtirishda yordam berishlari kerak. 9-sinfdan boshlab asta-sekin o'zi tanlagan yo'nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi «Ochiq eshiklar» kunlarida ishtirok etish maqsadga muvofiq. Yoki tanlayotgan kasbingizda faoliyat yuritayotgan shaxslarni ish joyisiga tashrif buyurib, bu kasbning ijobiy va salbiy tomonlarini bilib olishi va shu kasb bilan amaliyotda shug'ullanib ko'rishi joiz. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida amaliyot bilan bog'liq qator muommolar bor.

2020-yil Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Farg'onaga tashrif chog'ida Xalq ta'limi vazirligiga alohida ko'rsatmalar berdi. Prezident yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish masalalariga alohida to'xtalib o'tib, yangi o'quv yilidan 7-sinfdan boshlab o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish lozimligini ta'kidlab o'tdi, o'sha vaqtagi Xalq ta'limi vaziri Sh.Shermatovga bergan ko'rsatmasiga ko'ra 2020-2021 o'quv yilidan 7-sinfdan boshlab o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirilib, ular aynan qanday kasb egasi bo'lishi aniqlanadi. 8, 9, 10 sinfga qadar ular o'zlari tanlangan kasb-hunar bo'yicha o'qitilib boriladi. 10-sinfda ularga ishlash huquqini beruvchi guvohnomalar beriladi. 11-sinfda esa o'quvchilar bir vaqtning o'zida korxona va tashkilotlarda rasmiy tarzda ishlab oylik maosh olishlari ham mumkin bo'ladi. 11-sinf bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishiga hokimlar va hududiy sektor rahbarlari javobgar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatmadan ko'rinish turibdiki yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga yo'naltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish, iqtidoridan kelib chiqib to'g'ri kasb tanlashi katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u mактабдан oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki

zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muxtoj bo'lib boraveradi.

Shularni inobatga olgan holda kasb tanlash muammosini bartaraf qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11-may 2022-yildagi PQ-241-sonli qarori qabul qilindi va qator vazifalar belgilab qo'yildi.

Jumladan,maktab o'quvchilari uchun "Vatanparvarlik" darslarini va poligonlarda 2 kunlik harbiy dala mashg'ulotlarini o'tkazish hamda ularni chavandozlar maktablariga jalb qilish, harbiy qism ofitserlari, serjantlari va Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirokida "Vatan tinchligiga barchamiz mas'ul!", "Vatan ozodligi — baxt garovi!", "Vatanga xizmat — oliy fazilat" mavzularida davra suhbatlarini tashkil qilish, o'quvchilarining me'moriy va tarixiy obidalar, madaniyat muassasalari hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga tashrifini uyuştirish,o'quvchilarining qiziqishlari, talab va istaklaridan kelib chiqib sport musobaqalari, konsert tomoshalari va san'at asarlari ko'rgazmalarini o'tkazish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yo'li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalariga oid targ'ibot ishlarini olib boorish, ulug' allomalarining tug'ilgan sanalariga bag'ishlangan ilmiy haftaliklar, seminar va anjumanlar tashkil etish, hayotiy misollar asosida ota-onalarining farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati va mas'uliyati haqida tushuntirish ishlarini olib borsin, ularni qiziqtirgan va xavotirga solayotgan masalalar bo'yicha ochiq muloqotlar hamda o'quv-seminarlarni tashkil etish, boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'quv rejaga kiritilgan fanlar doirasida mehnat bozorida mavjud bo'lgan turli kasblar to'g'risida tushunchalar berib boorish, kasb egalarining mehnat faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida 5-7-sinf o'quvchilari uchun turli uchrashuv va sayyor darslarni tashkil etish,7-9-sinf o'quvchilarining kasbga moyilligini aniqlash bo'yicha tashxislar o'tkazib borish hamda natijalaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish korxonalari, hunarmandchilik markazlari va boshqa tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil qilish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va o'sish nuqtalariga muvofiq mакtab o'quvchilari uchun ustuvor kasblarni belgilash hamda 10-11-sinf o'quvchilarini ushbu kasblarga, shu jumladan kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari, qisqa muddatli kurslar ochilgan ta'lim muassasalarida o'qitish choralarini ko'rish kabi aniq va izchillikkagi vazifalarni sanab o'tish o'rinli. Bu vazifalarni bajarish orqali o'quvchi yoshlarni kasb tanlashdagi va mustaqil hayotga qadam qo'yanidagi duch keladigan muammolarning yechimini topamiz. Bu o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va kelajakda to'g'ri kasb tanlashda ko'makchi hisoblanadi. Zero yoshlar kelajagi-yurtimiz kelajagidir.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-241-sonli qarori.

3. Maxmudova .D. "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogi k faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzlucksizlikni ta'minlash". Xalq ta'limi jurnalı. №3 son, 57-58 bet.

4. <https://uzbekistan.ureport.in/story/36>